XALQ DEPUTATLARI SHAHRISABZ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 8 - fevral VI-51-23-4-67-K/23 Shahrisabz tuman hokimligi

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Shahrisabz tumani komissiyasining tumandagi 7 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining tarixiy o‘z nomida qoldirish haqidagi viloyat komissiyasini ekspert xulosasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 19-dekabrdagi 08-11341-sonli xati, 2022-yil 29-noyabrdagi Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Qashqadaryo viloyat komissiyasining B-07/572-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Qashqadaryo viloyat komissiyasining 2022-yil 21-dekabrdagi 15/6131-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 29-noyabr oyidagi B-07/572-sonli yig‘ilish bayoni hamda 2022-yil 21-dekabrdagi 15/6131-sonli xulosasiga muvofiq, Shahrisabz tumani komissiyasining tumandagi 7 ta mahalla fuqarolar yig‘inining tarixiy o‘z nomida qoldirish haqidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumanda nomlari o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (O.Abdullayev), tuman Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (S.Qiyomov), tuman qurilish bo‘limi boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan mahalla va ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (J.Jo‘rayev), tuman hokimining Yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (lavozimga ko‘ra), tuman hokimining maslahatchisi (Sh.Djalilova), tuman qurilish bo‘limi bilan birgalikda, tuman hududida nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar hamda peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishi topshirilsin.

5. Xalq deputatlari Shahrisabz tuman Kengashining 2016-yil 11-noyabrdagi №V-XXVII-62/11-sonli va 2023-yil 12-yanvardagi VI-51-5-4-67-K/23-sonli “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash

masalalari bo‘yicha Shahrisabz tumani komissiyasining tumandagi 7 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining tarixiy o‘z nomida qoldirish haqidagi taklifini ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi qarorlari mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **S.A.Xasanov**

Xalq deputatlari Shahrisabz tuman
Kengashining
2023 yil 8 fevraldagi
VI-51-23-4-67-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ilgari tarixiy nomlarini qayta nomlash belgilangan “Shodlik”, “Yuksalish”, “Diyor”, “Chashmatol”, “Barkamol”, “Nurobod”, “Beshchinor” mahalla fuqarolar yig‘inlari

T/r	**Geografik obyektning nomi**	**Mahallalarning amaldagi nomi**	**Mahallaning oldingi tarixiy nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan obyekt nomlari**
1	mahalla	Shodlik	Abziyat	Abziyat
2	mahalla	Yuksalish	Avazmalik	Avazmalik
3	mahalla	Diyor	Tepar	Tepar
4	mahalla	Chashmatol	Qumqishloq	Qumqishloq
5	mahalla	Barkamol	Qiyomshayx	Qiyomshayx
6	mahalla	Nurobod	Achchig‘i	Achchig‘i
7	mahalla	Beshchinor	Big‘mi	Big‘mi